

Tashabbuskorlik - tyutorlik talabi

Gidromelioratsiya fakulteti tyutori Egamova Dilbar o'ziga birlashtirilgan 113 - guruh talabalari bilan birgalikda bir nechta ma'rifiy sayohatlarni uyushtirib kelmoqda. Zulfiyaxonim tavalludining 107- yilligi munosabati bilan "Adiblar xiyoboni"ga tashrif buyurildi. Talabalar buyuk iste'dod egasi Zulfiyaxonim qalamiga mansub she'rlardan o'qib uning hayoti va ijodi haqida dildan suhbatlashildi.



Tyutorning bu tashabbusi GM fakulteti talabalari uchun juda marokli va sermazmun bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi sababi fakultet tyutorlari D. Egamova, D. Axrarova va K. Yakubovlar o'zimizga birlashtirilgan guruh talabalari bilan "Adiblar xiyoboni"ga navbatdagi sayohatni uyushtirdik. So'ngra D. Egamova GM - 102 - guruh talabalari bilan xiyobon hududida joylashgan Toshkent muzeyiga ham tashrif buyurishdi. Talabalar poytaxtimiz tarixi va buguni bilan bog'liq eksponatlar bilan yaqindan tanishishdi.



Universitet matbuot xizmati